



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77



MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDİYALASH TIZIMI SAMARADORLIGI

Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
shavkatabdurazakov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy turizm xizmatlari bozorida investitsion jozibadorlikni oshirish va xususiy kapital oqimini faollashtirishda davlat subsidiyalash mexanizmlarining o'рни hamda iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Sohada qo'llanilayotgan asosiy moliyaviy instrumentlar – kredit foiz stavkalarini kompensatsiya qilish, infratuzilma xarajatlari qoplash va yangi turizm obyektlarini barpo etishga ajratiladigan to'g'ridan-to'g'ri grantlarning amaliy natijadorligi baholangan. Tadqiqot davomida byudjet mablag'laridan foydalanishdagi tizimli muammolar o'rganilib, davlat subsidiyalarning investitsiya multiplikatori ta'sirini oshirish, moliyaviy resurslarni taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash hamda subsidiyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari bozori, davlat subsidiyalari, investitsion faollik, moliyaviy rag'batlantirish, investitsiya multiplikatori, infratuzilma xarajatlari, samaradorlik bahosi.

Abstract: This paper analyzes the role and economic efficiency of state subsidization mechanisms in enhancing investment attractiveness and stimulating private capital inflows within the national tourism services market. It evaluates the practical performance of key financial support instruments, including loan interest rate subsidies, infrastructure cost reimbursements, and direct grants for developing new tourism facilities. The study identifies structural challenges in the allocation of public funds, examines the investment multiplier effect of state-backed initiatives, and outlines evidence-based recommendations to optimize the subsidy framework for sustainable tourism development.

Keywords: tourism services market, state subsidies, investment activity, financial incentives, investment multiplier, infrastructure costs, efficiency evaluation.

Абстрактный: В данной статье анализируются роль и экономическая эффективность механизмов государственного субсидирования в повышении инвестиционной привлекательности и стимулировании притока частного капитала на национальном рынке туристических услуг. Дана оценка практической результативности ключевых инструментов финансовой поддержки, включая компенсацию процентных ставок по кредитам, возмещение затрат на инфраструктуру и выделение грантов на строительство новых туристических объектов. В исследовании выявлены системные проблемы распределения бюджетных средств, оценен эффект инвестиционного мультипликатора и разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию государственной системы субсидирования туристической отрасли.

Ключевые слова: рынок туристических услуг, государственные субсидии, инвестиционная активность, финансовое стимулирование, инвестиционный мультипликатор, инфраструктурные затраты, оценка эффективности.

Kirish (Введение/Introduction).

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda milliy iqtisodiyotni tarkibiy diversifikatsiya qilish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda turizm xizmatlari sohasi strategik drayverlardan biri hisoblanadi. Biroq mazkur soha o'zining yuqori kapital sig'imkorligi, uzoq muddatli qoplanish davri va mavsumiylik bilan bog'liq moliyaviy risklari bilan boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tubdan farqlanadi. Ayniqsa, zamonaviy joylashtirish vositalari, transport-logistika tarmog'i va rekreatsion infratuzilmani barpo etish xususiy biznes subyektlaridan yirik hajmdagi boshlang'ich kapitalni talab qilishi xususiy investitsiyalar oqimining sekinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Bozor mexanizmlarining infratuzilmaviy va moliyaviy uzilishlarni mustaqil ravishda to'liq bartaraf eta olmasligi davlatning moliyaviy dastaklar orqali aralashuvini taqozo etadi. Shu bois milliy turizm sektoriga investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish maqsadida davlat tomonidan turli shakldagi subsidiyalash mexanizmlari amaliyotga keng joriy etilmoqda. Xususan, tijorat banklarining investitsion kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini qisman kompensatsiya qilish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortib kelish xarajatlari qoplash hamda yangi turizm obyektlarini barpo etishga maqsadli grantlar ajratish xususiy sektor risklarini minimallashtirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalarning tarmoq investitsion faolligiga ko'rsatayotgan haqiqiy iqtisodiy ta'siri va

investitsiya multiplikatori darajasini baholash tizimli muammoligicha qolmoqda. Subsidiyalarni taqsimlash jarayonida qat'iy maqsadli indikatorlar va natijadorlik mezonlarining yetarli darajada belgilanmasligi byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishiga, xususiy sektorning davlat ko'magiga ortiqcha tobeligi shakllanishiga hamda sohadagi sog'lom raqobat muhitining buzilishiga olib kelish xavfini tug'diradi.

Mazkur holat milliy turizm xizmatlari bozorida davlat subsidiyalash tizimining investitsion faollikka ta'sirini chuqur tahlil qilish va uning samaradorligini miqdoriy baholash zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi amaldagi davlat subsidiyalash mexanizmlarining xususiy kapital jalb qilishdagi o'mini baholash, fiskal rag'batlantirish instrumentlarining iqtisodiy natijadorligini aniqlash hamda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Turizm sohasiga davlat tomonidan moliyaviy aralashuv va subsidiyalar ajratishning konseptual asoslari klassik hamda neoklassik iqtisodiy ta'limotlarda bozor uzilishlari (*market failures*) va ijobiy eksternaliyalar nazariyalari orqali asoslanadi. A.Pigu o'z tadqiqotlarida bozor mexanizmlari jamiyat uchun yuqori ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoqlarga xususiy kapitalni yetarli darajada jalb qila olmasligini, bu holatda davlat subsidiyalari ijtimoiy va xususiy xarajatlar

o'rtasidagi nomutanosiblikni muvozanatlashini ta'kidlaydi. J.M.Keyns ta'limotida esa inqirozli va noaniqlik yuqori bo'lgan sharoitlarda davlatning to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy dastaklari yig'ma talabni rag'batlantiruvchi va investitsiya multiplikatori harakatga keltiruvchi birlamchi impuls sifatida qaraladi. J.Stiglits va R.Masgrevy izlanishlarida esa infratuzilma va strategik sohalarida davlatning moliyaviy ko'magi xususiy sektor risklarini pasaytiruvchi kafolat mexanizmi vazifasini bajarishi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Turizm iqtisodiyoti bo'yicha xalqaro miqyosdagi ilmiy adabiyotlarda davlat subsidiyalarining xususiy investitsiyalarni jalb qilishdagi o'rni L.Dvayer, P.Forsayt, A.Bleyk, M.Tisdell va K.Krous kabi iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan. L.Dvayer va P.Forsayt o'zlarining empirik ishlarida turizm infratuzilmasiga ajratiladigan subsidiyalar kapitalning chekli tannarxini (*user cost of capital*) pasaytirish orqali xususiy sektor uchun investitsion loyihalarning sof joriy qiymatini (*NPV*) oshirishini isbotlaydilar. M.Tisdell turizm obyektlarining yuqori kapital sig'imkorligi va sekin qoplanuvchanlik xususiyatini inobatga olgan holda, davlatning foiz stavkalarini kompensatsiya qilish amaliyoti bank tizimidan uzoq muddatli kredit resurslarini jalb qilishda asosiy katalizator bo'lishini ta'kidlaydi. A.Bleyk va X.Song esa hisoblanadigan umumiy muvozanat (*CGE*) modellardan foydalanib, turizmga yo'naltirilgan fiskal rag'batlar tarmoqlararo zanjirli samarani yuzaga keltirib, yalpi investitsiya oqimini kengaytirishini ko'rsatib berishgan.

Biroq zamonaviy xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda davlat subsidiyalarining samaradorligi bilan bir qatorda ularning salbiy oqibatlari ham jiddiy tahlil qilinmoqda. Xususan, O.Falk, S.Bekker, R.Bergstryom va K.Chang kabi olimlarning tadqiqotlarida davlat subsidiyalari taqsimotining shaffof emasligi yoki qat'iy natijadorlik shartlarisiz berilishi xususiy investitsiyalarni siqib chiqarish (*crowding-out effect*), byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishi (*deadweight loss*) hamda tadbirkorlik subyektlarida boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqarishi empirik modellar orqali ochib berilgan. Ular subsidiyalash tizimi investitsion faollikni oshirishi uchun subsidiyalar qat'iy vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi, faqat yuqori iqtisodiy qaytimga ega hududiy loyihalarga yo'naltirilishi hamda aniq ko'rsatkichlar (*KPI*) bilan monitoring qilib borilishi lozimligini uqtirishadi.

Turizm sektorida davlat subsidiyalari samaradorligini miqdoriy baholash uslubiyoti bo'yicha D.Gellor, M.Karrillo va E.Santana kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida ekonometrik usullardan, jumladan, farqlar farqi (*Difference-in-Differences - DiD*), panel ma'lumotlar regressiyasi va xarajat-foydah tahlili (*Cost-Benefit Analysis*) modellardan keng foydalanganlar. Ushbu usullar subsidiyalar olgan va olmagan korxonalar hamda hududlarning investitsion o'sish sur'atlarini taqqoslash orqali subsidiyalarning sof iqtisodiy ta'sirini aniqlash imkonini bergan.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyot kontekstida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish, sohada qulay investitsiya muhitini shakllantirish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari O'zbekiston olimlaridan I.Tuxliyev, B.Navro'z-zoda, M.Pardayev, O.Xamidov, N.Ibadullayev, Sh.Norchayev va A.Norovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. I.Tuxliyev va B.Navro'z-zoda mintaqaviy turizm salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik va moliyaviy dastaklarning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan bo'lsalar, O.Xamidov va M.Pardayev turizm sohasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlarini yoritganlar. N.Ibadullayev esa turizm infratuzilmasini barpo etishda davlat tomonidan soliq va kredit imtiyozlarini qo'llash amaliyotini tahlil qilgan.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyot sharoitida turizm sohasiga yo'naltirilayotgan davlat subsidiyalarining alohida instrumentlari (xususan, kredit foizlarini kompensatsiya qilish, infratuzilma xarajatlarini qoplash grantlari) bo'yicha ularning investitsiya oqimiga ta'sirining elastikligini ekonometrik baholash, investitsiya multiplikatori qiymatini hisoblash hamda subsidiyalash tizimining kompleks samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq milliy turizm xizmatlari bozorida davlat subsidiyalash

tizimi samaradorligini chuqur empirik tahlil qilish va uni takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Ushbu tadqiqotda milliy turizm xizmatlari bozorida davlat subsidiyalash tizimining investitsion faollikka ta'sirini baholash uchun miqdoriy ekonometrik tahlil, qiyosiy-tizimli tahlil hamda investitsiya multiplikatori modellaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy birligi (12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) bo'yicha 2018–2025 yillar davrini qamrab olgan panel ma'lumotlar bazasi (*balanced panel data*) shakllantirildi. Birlamchi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Turizm qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy hisobotlari asosida jamlandi.

Davlat subsidiyalari va xususiy investitsiyalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini hamda elastiklik darajasini baholash maqsadida ko'p omilli panel regressiya modeli ishlab chiqildi. Modeldagi o'zgaruvchilar o'rtasidagi nochiqliq munosabatlarni hisobga olish va koeffitsiyentlarni elastiklik sifatida to'g'ridan-to'g'ri talqin qilish maqsadida logarifmik-chiziqli (*log-log*) spetsifikatsiya tanlandi:

$$\ln(INV_{it}) = \beta_0 + \beta_1 \ln(SUB_INT_{it}) + \beta_2 \ln(SUB_INF_{it}) + \beta_3 \ln(TOUR_{it}) + \beta_4 \ln(GRP_{it}) + \alpha_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

— INV_{it} – i -hududda t -yildagi turizm xizmatlari sohasiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar hajmi (milliard so'm);

— SUB_INT_{it} – tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini kompensatsiya qilishga ajratilgan davlat subsidiyalari hajmi (milliard so'm);

— SUB_INF_{it} – turizm infratuzilmasini barpo etish va modernizatsiya qilish xarajatlarini qoplash uchun berilgan to'g'ridan-to'g'ri davlat grantlari va subsidiyalari hajmi (milliard so'm);

— $TOUR_{it}$ – i -hududga tashrif buyurgan jami turistlar oqimi (ming kishi);

— GRP_{it} – hududning yalpi hududiy mahsulot hajmi (milliard so'm);

— α_i – hududlarning o'ziga xos kuzatilmaydigan individual xususiyatlari (*unobserved individual fixed effects*);

— λ_t – vaqt bo'yicha o'zgaruvchan umumiy makroiqtisodiy shoklar ta'siri (*time fixed effects*);

— β_0 – ozod had, $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ – baholanuvchi regressiya parametrlari;

— ε_{it} – tasodifiy xatoliklar (*error term*).

Subsidiyalash tizimining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy natijadorligini baholash uchun investitsiya multiplikatori (K_{sub}) ko'rsatkichi hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich davlat byudjetidan ajratilgan har bir so'm subsidiya hisobiga sohaga qancha miqdorda xususiy investitsiya jalb qilinganligini ifodalaydi:

$$K_{sub} = \frac{\Delta INV_{it}}{\Delta SUB_{it}} = \beta_1 \times \frac{INV}{SUB}$$

Modelning ishonchligi va adekvatligini ta'minlash maqsadida qator ekonometrik diagnostik testlar o'tkazildi. Xususan, guruhlangan model (*Pooled OLS*) hamda qat'iy ta'sirlar (*Fixed Effects - FE*) va tasodifiy ta'sirlar (*Random Effects - RE*) modellari o'rtasida eng optimalini tanlash uchun Xausman (*Hausman test*) va Breush-Pagan testlari qo'llanildi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi multikollinearlik xavfi dispersiyaning ortish omili (*Variance Inflation Factor - VIF*) yordamida, qoldiqlardagi geteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya muammolari esa mos ravishda Breush-Pagan-Godfri va Vuldrij (*Wooldridge test*) testlari orqali tekshirilib, standart xatoliklar Xuber-Uayt (*Huber-White robust standard errors*) usuli orqali korrelyatsiya qilindi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

2018–2025 yillar davomida milliy turizm xizmatlari bozorida davlat tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lami institutsional va moliyaviy

islohotlar sohada xususiy kapital ishtirokini sezilarli darajada kengaytirdi. Ushbu davrda turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan yalpi xususiy investitsiyalar hajmi qariyb 3,8 barobarga oshib, tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi ulushi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Biroq mazkur o'sish sur'atlari mamlakat hududlari bo'yicha keskin tabaqalashgan bo'lib, investitsiyalarning asosiy qismi an'anaviy turizm markazlari hisoblangan Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Turizm sohasiga ajratilgan davlat subsidiyalarining tarkibiy dinamikasi tahlil qilinganda, asosiy moliyaviy resurslar ikki yo'nalishga — tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan qismini qisman kompensatsiya qilishga hamda yangi barpo etilayotgan mehmonxona va turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi xarajatlarini qoplashga yo'naltirilganligi ko'rinadi. Xususan, 2018–2025 yillarda ajratilgan jami subsidiyalar hajmida kredit foiz stavkalarini qoplash ulushi o'rtacha 64,2 foizni, infratuzilma grantlari esa 35,8 foizni tashkil etdi. Ushbu davlat moliyaviy instrumentlarining xususiy investitsiyalar dinamikasiga ta'sirini aniqlash maqsadida tanlab olingan o'zgaruvchilar bo'yicha dastlabki tavsifiy statistika ko'rsatkichlari shakllantirildi.

Tavsifiy statistika tahlili respublika hududlari o'rtasida xususiy investitsiyalar (*INV*) va ajratilgan subsidiyalar hajmi bo'yicha yuqori darajadagi asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi. O'rganilayotgan panel ma'lumotlar to'plami (112 ta kuzatuv) bo'yicha logarifmlangan o'zgaruvchilarning o'rtacha arifmetik qiymatlari, standart chetlanishlari hamda minimal va maksimal chegaralari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Ekonometrik model o'zgaruvchilarining tavsifiy statistikasi (2018–2025 yy.)¹

O'zgaruvchi	Tavsif	O'rtacha qiymat	Standart chetlanish	Min	Max	Kuzatuvlar soni
$\ln(INV)$	Xususiy investitsiyalar hajmi	6.421	1.184	3.821	8.915	112
$\ln(SUB_I)$	Foiz kompensatsiyasi subsidiyalari	4.115	0.942	1.954	6.320	112
$\ln(SUB_I)$	Infratuzilma grantlari subsidiyalari	3.528	1.056	1.204	5.841	112
$\ln(TOUR)$	Jami turistlar oqimi	6.892	0.873	4.912	8.745	112
$\ln(GRP)$	Yalpi hududiy mahsulot	9.845	0.612	8.411	11.205	112

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, infratuzilma grantlari bo'yicha standart chetlanish ko'rsatkichi (1.056) foiz kompensatsiyalariga (0.942) nisbatan yuqori bo'lib, bu davlat tomonidan infratuzilma xarajatlarini qoplash mexanizmining hududlar kesimida notekis taqsimlanganligidan dalolat beradi. Xususiy investitsiyalar hajmining minimal (3.821) va maksimal (8.915) qiymatlari o'rtasidagi katta tafovut esa turizm sohasida hududiy investitsion konsentratsiya darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi.

Panel regressiya modelini baholashdan avval ko'p o'lchovli ekonometrik diagnostika sinovlari amalga oshirildi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi multikollinearlik xavfini tekshirish uchun hisoblangan VIF (*Variance Inflation Factor*) ko'rsatkichlari 1.42 dan 2.85 gacha bo'lgan oraliqda shakllanib, o'rtacha VIF qiymati 2.14 ni tashkil etdi ($VIF < 5$

chegarasidan past). Guruhlangan OLS (*Pooled OLS*) va panel modellar o'rtasidagi tanlov Breush-Pagan LM testi orqali amalga oshirildi ($p < 0.001$), bu esa individual hududiy ta'sirlar mavjudligini ko'rsatdi. Fiksirlangan ta'sirlar (*Fixed Effects*) va tasodifiy ta'sirlar (*Random Effects*) modellarini taqqoslash maqsadida o'tkazilgan Xausman testi statistikasi ($\chi^2 = 24.68, p = 0.0001$) nol gipotezani rad etib, fiksirlangan ta'sirlar modeli eng adekvat va barqaror spetsifikatsiya ekanligini isbotladi.

Hududiy va vaqtinchalik o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda baholangan fiksirlangan ta'sirlar (*Two-way Fixed Effects*) modelining yakuniy natijalari, standart xatoliklarni Xuber-Uayt usuli orqali mustahkamlangan (*robust*) ko'rinishda 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Turizm xizmatlari bozorida xususiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillarning fiksirlangan ta'sirlar (FE) modeli natijalari²

Mustaqil o'zgaruvchilar	Koeffitsiyent (β)	Robust standart xato	t-statistika	p-qiymat	95% ishonchlilik oralig'i
$\ln(SUB_INT)$	0.284	0.062	4.58	0.000***	[0.161; 0.407]
$\ln(SUB_INF)$	0.391	0.078	5.01	0.000***	[0.236; 0.546]
$\ln(TOUR)$	0.412	0.095	4.34	0.000***	[0.223; 0.601]
$\ln(GRP)$	0.526	0.141	3.73	0.000***	[0.246; 0.806]
Doimiy had (β_0)	-3.118	0.894	-3.49	0.001***	[-4.892; -1.344]
Model parametrlari					
R^2 (within) = 0.742	F-statistika = 68.45***				Kuzatuvlar: $N = 112$
R^2 (between) = 0.689	Prob > F = 0.0000				Hududlar soni: $n = 14$

Modelning empirik natijalari barcha baholangan omillarning 1% statistik ahamiyatlilik darajasida xususiy investitsiyalar hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash koeffitsiyenti $\beta_1 = 0.284$ ga teng bo'lib, ushbu turdagi davlat subsidiyalari hajmining 1% ga ortishi hududiy turizm sohasiga yo'naltirilayotgan xususiy investitsiyalar hajmining o'rtacha 0.284% ga ko'payishiga olib kelishini ko'rsatadi. Bu holat foiz kompensatsiyalarining xususiy biznes subyektlari uchun qarz kapitali tannaxrini pasaytirib, uzoq muddatli investitsion loyihalarning rentabellik darajasini oshirishini ifodalaydi.

Infratuzilma grantlari bo'yicha olingan elastiklik koeffitsiyenti esa $\beta_2 = 0.391$ ni tashkil etib, foiz subsidiyalarga qaraganda sezilarli darajada yuqori ta'sir kuchiga egaligini ko'rsatdi. Ya'ni, davlat tomonidan muhandislik-kommunikatsiya, yo'l va tarmoq infratuzilmasini qoplashga yo'naltirilgan subsidiyalarning 1% ga oshirilishi xususiy investitsiyalar hajmining 0.391% ga kengayishini ta'minlaydi. Mazkur natija turizm sohasida infratuzilma ta'minoti xususiy investorlar uchun birlamchi to'siq (*entry barrier*) hisoblanishi hamda davlatning infratuzilmaviy xarajatlarni o'z zimmasiga olishi xususiy kapital uchun kuchli jalb etuvchi samara (*crowding-in effect*) yaratishini tasdiqlaydi.

Nazorat o'zgaruvchilarining ta'siri ham kutilgan iqtisodiy qonuniyatlarga to'liq mos keldi. Turistlar oqimining elastiklik koeffitsiyenti $\beta_3 = 0.412$ ga teng bo'lib, talab omilining kengayishi xususiy investorlarning kelgusi daromadlar bo'yicha kutilmalarini yaxshilashini ko'rsatadi. Yalpi hududiy mahsulot o'zgaruvchisi ($\beta_4 =$

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

0.526) esa hududning umumiy iqtisodiy salohiyati va to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ichki bozor hajmi turizm investitsiyalarini harakatga keltiruvchi fundamental makroiqtisodiy baza ekanligini namoyon etadi.

Tadqiqot doirasida subsidiyalash tizimining investitsiya multiplikatori (K_{sub}) baholanganida, ajratilgan har 1 milliard so'm davlat subsidiyasi hisobiga o'rtacha qancha xususiy kapital jalb qilinganligi aniqlandi. Hisob-kitoblarga ko'ra, infratuzilma grantlari bo'yicha investitsiya multiplikatori $K_{sub(INF)} = 4.82$ ni, foiz stavkalarini kompensatsiya qilish bo'yicha esa $K_{sub(INT)} = 3.15$ ni tashkil etdi. Ushbu multiplikativ ko'rsatkichlar va ularning yillar kesimidagi o'zgarish dinamikasi quyidagi rasmda o'z aksini topgan.



1-rasm. Davlat subsidiyalari turlari bo'yicha investitsiya multiplikatori (K_{sub}) va xususiy investitsiyalar oqimi dinamikasi (2018–2025 yy.)³

1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018–2021 yillarda subsidiyalarning investitsiya multiplikatori past darajada ($K_{sub} \approx 2.1 - 2.8$) bo'lgan bo'lsa, 2022–2025 yillarga kelib dasturlarning qamrovi va manzilliligi ortishi hisobiga multiplikator ko'rsatkichi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, infratuzilma yoki to'siqlari yuqori bo'lgan yangi turizm zonalarida (masalan, Bo'stonliq, Zomin va Xonobod turizm klasterlarida) davlat grantlarining multiplikativ samaradorligi 5.4 gacha yetib, an'anaviy shaharlardagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori natija qayd etgan.

Biroq erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, subsidiyalash tizimida qator funksional kamchiliklar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, subsidiyalarni taqsimlash mexanizmlarida loyihalarning yakuniy iqtisodiy rentabelligi va yangi ish o'rinlari yaratish ko'rsatkichlari bilan bog'langan qat'iy KPI tizimining to'liq ishlamasligi, ayrim hududlarda byudjet mablag'larining xususiy sektorni faollashtirmasdan "o'lik yuk" (deadweight loss) sifatida sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu empirik natijalar milliy turizm bozorida subsidiyalash tizimini faqat to'g'ridan-to'g'ri taqsimlashdan natijaga yo'naltirilgan (performance-based) mexanizmlarga o'tkazish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'tkazilgan ekonometrik tahlillar va empirik tadqiqot natijalari milliy turizm xizmatlari bozorida davlat subsidiyalash tizimi xususiy kapitalni jalb qilish hamda investitsion faollikni oshirishda muhim fiskal

vosita ekanligini ko'rsatdi. 2018–2025 yillar davri bo'yicha 14 ta hududiy birlik ma'lumotlari asosida baholangan fiksirlangan ta'sirlar modeli subsidiyalarning barcha turlari investitsiyalar hajmiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Tadqiqot doirasida olingan asosiy ilmiy va amaliy xulosalar quyidagilardan iborat:

- **Infratuzilma grantlarining ustunligi:** Muhandislik-kommunikatsiya va tarmoq infratuzilmasi xarajatlarini qoplashga yo'naltirilgan subsidiyalar ($\beta = 0.391, K_{sub} = 4.82$) foiz stavkalarini kompensatsiya qilish instrumentiga ($\beta = 0.284, K_{sub} = 3.15$) nisbatan ancha yuqori multiplikativ ta'sirga ega. Bu holat xususiy investorlar uchun birlamchi infratuzilma to'siqlarini bartaraf etish tarmoqqa kapital oqimini jalb qilishning eng samarali drayveri ekanligini tasdiqlaydi.

- **Hududiy asimetriya:** Amaldagi subsidiyalash dasturlari asosan an'anaviy turizm markazlarida yuqori natijadorlik ko'rsatgan bo'lsa-da, turizm salohiyati yuqori, biroq infratuzilmasi past bo'lgan hududlarda subsidiyalarning qamrovi va samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmagan.

- **Institutsional kamchiliklar:** Subsidiyalarni ajratish jarayonida loyihalarning yakuniy iqtisodiy qaytimi (yangi ish o'rinlari soni, xizmat ko'rsatish hajmi, soliq tushumlari) bilan bog'liq monitoring tizimining to'liq shakllanmaganligi ayrim hududlarda byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishiga olib kelmoqda.

Milliy turizm xizmatlari bozorida davlat subsidiyalash tizimining samaradorligini yanada oshirish va xususiy investitsiyalarni faollashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. **Natijaga yo'naltirilgan (KPI-based) subsidiyalash mexanizmiga o'tish.** Davlat subsidiyalarni ajratishda loyihalarning faqat boshlang'ich xarajatlariga emas, balki ularning aniq iqtisodiy indikatorlariga (yaratilgan doimiy ish o'rimi, yillik tushum dinamikasi va xizmatlar eksporti hajmi) tayangan bosqichma-bosqich to'lov tizimini joriy etish.

2. **Subsidiyalar tarkibida infratuzilma grantlari ulushini kengaytirish.** Davlat byudjetidan turizm sohasini qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag'larning kamida 50–55 foizini to'g'ridan-to'g'ri muhandislik-kommunikatsiya, yo'l va energetika infratuzilmasini qurish va modernizatsiya qilish xarajatlarini qoplashga yo'naltirish.

3. **Tabaqalashtirilgan hududiy fiskal yondashuvni qo'llash.** Turizm infratuzilmasi nisbatan orqada qolgan, ammo yuqori rekreatsion va ekoturistik salohiyatga ega bo'lgan hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari) uchun foiz stavkalarini kompensatsiya qilish miqdorini tabaqalashtirilgan holda oshirish.

4. **Subsidiyalarni monitoring qilishning yagona raqamli platformasini joriy etish.** Mablag'larni taqsimlash jarayonida inson omilini kamaytirish, arizalarni qabul qilishdan boshlab investitsiya loyihasining ishga tushirilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarni shaffof tarzda baholash imkonini beruvchi axborot tizimini to'liq integratsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2019). Turizm to'g'risidagi O'RQ-549-son Qonuni. Toshkent shahri, 18-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5611-son Farmoni. Toshkent shahri, 5-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. Toshkent shahri, 11-sentyabr.
4. Becker, S. O., Egger, P. H., & von Ehrlich, M. (2012). Too much of a good thing? On the optimal tallying of EU regional policy. *Journal of Public Economics*, 96(7–8), 648–658.
5. Blake, A., Sinclair, M. T., & Sugiyarto, G. (2003). Quantifying the economic impact of tourism in Spain: A computable general equilibrium approach. *Annals of Tourism Research*, 30(4), 899–920.
6. Crouch, G. I., & Ritchie, J. R. B. (1999). Tourism, competitiveness, and societal prosperity. *Journal of Travel Research*, 38(2), 137–152.
7. Dwyer, L., & Forsyth, P. (1993). Government support for tourism promotion: Some neglected issues. *Australian Economic Papers*, 32(61), 355–374.
8. Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). *Tourism Economics and Policy*. Bristol: Channel View Publications.
9. Falk, M. (2014). The impact of tourism subsidies on employment growth in Austrian hotels. *Tourism Management*, 44, 86–98.

³ Muallif ishlanmasi

10. Geller, D., Carrillo, M., & Santana, E. (2018). Public subsidies and private investment in tourism infrastructure: Empirical evidence from regional development programs. *Tourism Economics*, 24(5), 582–601.
11. Ibadullayev, N. E. (2020). O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 112–121.
12. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.
13. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice* (5th ed.). New York: McGraw-Hill.
14. Navro'z-zoda, B. X., & Shomiyev, G. U. (2017). Turizm klasterlarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish omillari. *Moliya va bank ishi*, (3), 45–52.
15. Norchayev, Sh. R. (2022). Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat fiskal rag'batlantirish instrumentlarining o'rni. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(6), 78–85.